

PEDAGOGIK AMALIYOT DAVOMIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY O'ZINI-O'ZI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Abduvohidova Sabina Zokir qizi,
*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika
universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada, pedagogik amaliyot davomida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish jarayonida ularni yetarlicha qo'llab-quvvatlash tizimining psixologik omillari har tomonlama tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada o'zini anglash va kasbiy identitetni shakllantirishda refleksiya, ijtimoiy yordam, konstruktiv fikr-mulohazalar va emotsional intellektning roli ilmiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish, pedagogik amaliyot, psixologik qo'llab-quvvatlash, refleksiya, emotsional intellekt, mentorlik, o'zini anglash, stressga bardoshlik, professional identitet, ichki motivatsiya.

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализированы психологические факторы системы адекватной поддержки будущих учителей в процессе их профессионального саморазвития в ходе педагогической практики. Также в статье научно изучена роль рефлексии, социальной помощи, конструктивного мышления и эмоционального интеллекта в формировании самосознания и профессиональной идентичности.

Ключевые слова. Профессиональное саморазвитие, педагогическая практика, психологическая поддержка, рефлексия, эмоциональный интеллект, mentorство, самосознание, стрессоустойчивость, профессиональная идентичность, внутренняя мотивация.

Abstract. In this article, the psychological factors of the system of adequate support for future teachers in the process of their professional self-development during pedagogical practice are comprehensively analyzed. The article also scientifically examines the role of reflection, social assistance, constructive thinking, and emotional intelligence in the formation of self-awareness and professional identity.

Keywords. Professional self-development, pedagogical practice, psychological support, reflection, emotional intelligence, mentoring, self-awareness, stress resistance, professional identity, internal motivation.

Kirish. Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchining nazariy bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq etish jarayonidir. Bu bosqichda talaba ilk bor real ta'lim muhiti, o'quvchilar bilan muloqot, dars jarayonini rejalashtirish va o'tkazish, baholash,

hamkasblar bilan ishlash kabi kompleks pedagogik faoliyatni boshdan kechiradi. Shu jihatdan qaralganda, amaliyot nafaqat kasbiy tajriba olishning manbai, balki shaxsiy rivojlanish, ichki resurslarni safarbar qilish va o'zini kasbiy jihatdan sinovdan o'tkazish maydoni hamdir. Biroq bu jarayon o'z-o'zidan kechmaydi. Bo'lajak o'qituvchining ichki ishonchini mustahkamlovchi, uni rag'batlantiruvchi va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi tizim mavjud bo'lishi nihoyatda muhimdir.

Kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish, eng avvalo, o'zining imkoniyatlarini anglash, kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish, shaxsiy ustuvor yo'nalishlarni belgilashdan boshlanadi. Amaliyot jarayonida talaba o'zini o'qituvchi sifatida tasavvur qilib, o'zining haqiqiy kasbiy holatini baholash imkoniga ega bo'ladi. Shu paytda u ruhiy bosim, noaniqlik, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv, ijtimoiy bahoga nisbatan sezuvchanlik kabi psixologik holatlarga duch keladi. Mazkur holatlarda o'zini psixologik jihatdan barqaror saqlash, to'g'ri motivatsiyani shakllantirish va shaxsiy ishonchni mustahkamlash orqali talaba o'zining kasbiy yo'lida mustahkam tura oladi. Bu esa, o'z navbatida, o'zini yetarlicha qo'llab-quvvatlash tizimini zarurat sifatida yuzaga chiqaradi.

Psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi deganda, amaliyot davomida talabaning ruhiy holatini barqarorlashtirishga, unga emotsional yengillik va ishonch bag'ishlashga, pedagogik faoliyatda o'zini erkin his qilishiga yordam beradigan ichki va tashqi omillar majmuasi tushuniladi. Bu tizimda o'qituvchi-maslahatchilar, amaliyot rahbarlari, kursdoshlar bilan do'stona va ijobiy munosabatlar muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari, talabaning o'z-o'ziga bergan ijobiy bahosi, o'z muvaffaqiyatlariga nisbatan ob'ektiv qarash qobiliyati ham psixologik barqarorlikni ta'minlovchi muhim omillardandir. Talaba ushbu jarayonda o'zini qanday his qilsa, kelgusida o'qituvchilik faoliyatiga nisbatan shakllanuvchi munosabatlar ham shunga mos tarzda rivojlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik amaliyot davrida o'zini yetarlicha qo'llab-quvvatlash tizimining mavjudligi bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishini faollashtiradi. Qo'llab-quvvatlovchi muhit bo'lmasa, talaba o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon eta olmaydi, faoliyatda qat'iylik va ishonch yetishmovchiligi yuzaga keladi. Aksincha, psixologik jihatdan sog'lom, ochiq va o'zaro ishonchga asoslangan ta'lim muhiti shakllangan bo'lsa, talaba o'zida kuchli ichki motivatsiya, tashabbuskorlik va mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini rivojlantiradi. Bu esa uning nafaqat bugungi amaliyotda, balki kelajakdagi kasbiy hayotida muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishida psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi ajralmas tarkibiy qism hisoblanadi. Bu tizimning to'g'ri yo'lga qo'yilishi talabaning pedagogik faoliyatga bo'lgan munosabatini, o'zini o'qituvchi sifatida qabul qilish darajasini va kasbiy

yondashuvini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, psixologik qo'llab-quvvatlangan muhitda talabalarning dars o'tish sifati, muloqot madaniyati va o'ziga bo'lgan ishonch sezilarli darajada oshadi. Shu boisdan, ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ta'lim tizimida joriy qilish zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Amaliyot davomida talabaning kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishida o'zini yetarli qo'llab-quvvatlash tizimi psixologik jihatdan eng avvalo self-efficacy, ya'ni o'zini amalga oshira olishga bo'lgan ishonch konsepsiyasiga bog'liq. Albert Bandura tomonidan ilgari surilgan ushbu tushuncha amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchining o'zini sinab ko'rish, muvaffaqiyatni boshidan kechirish orqali ijobiy baho shakllantiradi. Banduraning to'rt asosiy manbai — tajriba orqali o'zini sinovdan o'tkazish, boshqalarni kuzatish orqali model olish, ustozlar tomonidan beriladigan konstruktiv feedback va emotsional holatni boshqarish — pedagogik amaliyotning asosiy tarkibiy qismiga aylanadi. Ushbu omillar ta'lim jarayonida talabaning kasbiy hamda shaxsiy o'sishni davom ettirishi uchun mustahkam zarracha hisoblanadi.

Bandura nazariyasining yana bir asosiy elementiga — reciprocal determinism — pedagogik muhitning o'zaro ta'siri kiradi: talaba psixologik, emotsional muhit bilan o'zaro aloqada bo'lib, bu muhit uni shakllantiradi va aksincha, talaba o'zini atrofdagi muhitga qo'shadi. Agar amaliyotda ishonchli muhit yaratilsa, talaba xatolarini qabul qiladigan va ularni tahlil qiladigan reflektiv salohiyatga ega bo'ladi. Shu bilan birga, talabaning o'zgaruvchan psixologik holati bidirectional — ya'ni tanqidiy fikr uning muhitga bo'lgan muloqot tarzini ham o'zgartiradi.

Jon Deweyning tajriba asosidagi ta'lim nazariyasiga ko'ra, ta'lim faqatgina nazariy bilimlar bermasdan, amaliy tajribaga asoslangan holda o'tkazilsa, aniq o'zgarish va o'sish olib keladi. Dewey amaliyot davomida talabaning o'zini sinab ko'rish, fikr bildirish va bu tajriba ustida refleksiya qilishni o'z kasbiy shakllanishiga asos sifatida ko'radi. Bu esa psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashda metodik jihatdan puxta o'ylangan reflektiv praktikasi joriy qilish muhimligini ko'rsatadi.

Lev Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi va yaqin rivojlanish zonasi pedagogik amaliyotga ko'plab metodik yo'nalishlar olib kiradi. Bo'lajak o'qituvchi amaliyotda ustoz va hamkasblar yordamida yangi usullarni o'zlashtirib, shu jarayon orqali o'zini ishonchli vazifalarni bajarishga qodir deb hisoblay boshlaydi. Vygotskiy yondashuvidan kelib chiqqan holda, psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi tizim o'qituvchining ZPD orqali o'zining kasbiy identitetini shakllantiradi.

Jerome Bruner tomonidan rivojlantirilgan instructional scaffolding yondashuvi ham amaliyotning o'ziga xos psixologik tuzilmalarini ochib beradi. Bruner ta'kidlaydiki, yaqin mentorlik muhitida talabaga qadar mustaqil harakat qilish uchun

bosqichma-bosqich yordam ko'rsatish talabani ichki motivatsiyasini va reflektiv tafakkurini kuchaytiradi. Scaffolding nafaqat ko'mak, balki talaba qiyinchiliklarni boshdan kechirib, javobgarlikni o'z zimmasiga olishiga yo'l ochadi.

Reflektiv amaliyot kontseptsiyasi Donald Schon va boshqalar tomonidan bo'lajak o'qituvchilarning professional o'sishida hal qiluvchi amaliyot deb tan olingan. Reflektiv pedagog talabani o'z amaliyotini qayta ko'rib chiqishi, tahlil qilishi va uni yangilashi orqali psixologik jihatdan jonlanadi va ichki qo'llab-quvvatlovchi resurslar yaratadi. Bu yondashuv amaliyot jarayonida talabara psixologik barqarorlik va ichki salohiyatni oshirishda zarurdir.

Kasbiy o'zini-o'zini rivojlantirish kontekstida uning asosiy psixologik ehtiyojlarini — kompetentlik, avtonomiya va ijtimoiy integratsiya — ko'rsatadi. Amaliyotda ustozlar, mentorlar va tengdoshlarning ijobiy psixologik aloqa va qoniqish bilan ishlashi talabani ichki motivatsiyasini mustahkamlab, burnout xavfini kamaytiradi. Bu esa amaliyot davomida psixologik qo'llab-quvvatlash tizimining fundamental unsurlaridan biri hisoblanadi.

Emotsional nazariyalar bo'yicha Barbara Fredricksonning Broaden-and-Build yondashuvi bo'lajak o'qituvchining ijobiy emotsiyalarini rag'batlantiradi, bu emotsiyalar esa uning reflektiv va ijodkorlik salohiyatini oshiradi. Amaliyot jarayonida hissiy qo'llab-quvvatlash — masalan, muvaffaqiyat tuyg'usi, kursdoshlar bilan hamkorlik va ustozlarning rag'batlantiruvchi so'zlari — talabani emotsional resurslarini boyitadi va stressga nisbatan tasalli beradi.

Barcha ushbu nazariyalar integrativ yondashuvni tavsiya qiladi, unda amaliyot — bu nafaqat bilim berish yoki tajriba orttirish, balki psixologik hamda pedagogik resurslarni uyg'unlashtiruvchi kompleks jarayon hisoblanadi. Mazkur tizimdagi har bir omil — reflektivlik, ijobiy emotsiyalar va psixologik ehtiyojlarni qondirish — bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishida muhim rol o'ynaydi.

Muhokama. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishi, ayniqsa, pedagogik amaliyot davrida chuqur ichki psixologik jarayonlar bilan uyg'unlashadi. Shu bosqichda talabani o'ziga nisbatan ishonchi, kasbga bo'lgan munosabati, tanqidiy va reflektiv tafakkur darajasi shakllana boshlaydi. Ammo bu ichki o'zgarishlar ko'pincha tashqi muhitdagi ijobiy yoki salbiy omillarga kuchli darajada bog'liq bo'ladi. Agar pedagogik amaliyot jarayonida o'zini qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud bo'lsa, talaba o'zining mustaqilligini, professional mas'uliyatini va ichki motivatsiyasini faolroq rivojlantiradi. Bunday qo'llab-quvvatlash nafaqat o'qituvchi yoki mentor tomonidan bildirilgan rag'bat, balki akademik hamkorlik, do'stona ijtimoiy muhit va ijobiy psixologik kayfiyatlar majmuasini ham o'z ichiga oladi.

Muhokama jarayonida shuni alohida ta'kidlash kerakki, qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhit amaliyotchi talabada xatolardan qo'rqqanlik, yangi metodlarni sinab ko'rish va o'zini pedagogik faoliyatga tayyor shaxs sifatida tasavvur qilish imkonini

beradi. Bu esa Bandura tomonidan ishlab chiqilgan o'zini samarali deb hisoblash (self-efficacy) tushunchasiga bog'lanadi. Agar talaba faoliyatda muvaffaqiyatga erishish orqali o'zini qadrlash hissini orttira olsa, u holda kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish jarayoni ijobiy yo'nalishda harakatlanadi. Bunda ustozlarning doimiy va konstruktiv fikr-mulohazalari, emotsional rag'bat va axloqiy qo'llab-quvvatlash rol o'ynaydi.

Boshqa bir muhim jihat bu – refleksiya qilish qobiliyatining qo'llab-quvvatlanishidir. Donald Schonning reflektiv amaliyot nazariyasiga ko'ra, har bir amaliy tajriba ustida fikr yuritish, tahlil qilish va undan saboq chiqarish pedagogik rivojlanishning asosiy poydevoridir. Talaba o'zini anglashga intilar ekan, unga o'zining faoliyati ustida mustaqil fikr yuritishga imkon beruvchi psixologik sharoitlar taqdim etilishi zarur. Agar bu sharoitlar mavjud bo'lsa, talaba o'zini nafaqat ijrochilik roli bilan, balki kasbiy tashabbuskor sifatida ham shakllantiradi.

Amaliyot davomida talaba ko'plab ijtimoiy rollarni sinab ko'radi: u bir vaqtning o'zida ustoz, tinglovchi, baholovchi, o'rganuvchi va tashkilotchi sifatida harakat qiladi. Bu turli rol o'zgarishlari kuchli emotsional yengilmaslik, stressga bardoshlik va ichki barqarorlikni talab etadi. Shu boisdan psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi aynan emotsional intellekt, stressni boshqarish, hissiy reaksiya ustidan nazorat kabi jihatlar bilan bevosita bog'liq bo'lishi kerak. Ijobiy muhitda o'qituvchiga aylanish jarayoni talabaning shaxsiy tajribasi, ruhiy holati va o'ziga bo'lgan munosabati bilan uyg'unlashgan holda kechadi.

1. Jadval. Pedagogik amaliyot davomida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishida o'zini yetarlicha qo'llab-quvvatlash tizimining psixologik omillariga oid tadqiqot jadvali

№	Tadqiqot yo'nalishi	Psixologik omil	Baholash mezon	Baholash usuli	Kutilayotgan natija
1	O'quv amaliyot muhitida shaxsiy rivojlanish	O'ziga bo'lgan ishonch	O'ziga ijobiy baho berish darajasi	So'rovnoma, o'z-o'zini baholash testi	Talabaning o'zini kasbiy shaxs sifatida qadrlash darajasi oshadi
2	Mentorlik faoliyatining samaradorligi	Emotsional qo'llab-quvvatlash	O'zini erkin ifoda qilish qobiliyati	Kuzatuv, suhbat, fikr-mulohaza tahlili	Talaba o'z fikrini mustaqil bildirishga intiladi
3	Reflektiv faoliyatning shakllanishi	Kasbiy refleksiya qobiliyati	Faoliyat tahlilida tanqidiy fikrlash darajasi	Refleksiya kundaligi, yozma topshiriqlar	Bo'lajak o'qituvchida mustaqil tahliliy yondashuv shakllanadi

4	Stressga qarshi psixologik tayyorgarlik	Stressni boshqarish	Stressli holatdagi emotsional barqarorlik	Psixologik test, holatli intervyu	Talaba murakkab vaziyatlarda muvozanatni saqlay oladi
5	Ijtimoiy hamkorlikning ta'siri	Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	Guruh bilan ishlashdagi ishtirok darajasi	Amaliy mashg'ulotlar, baholovchi jurnallar	Talaba o'zaro muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini namoyon qiladi
6	Ichki motivatsiyaning kuchayishi	Shaxsiy tashabbus	Mustaqil reja tuzish va amalga oshirish	Portfolio, kuzatuv, loyiha tahlili	Talaba kasbiy faoliyatda ilg'or tashabbus ko'rsata boshlaydi

Amaliyotchi talabalar orasida kuzatilgan tajriba shuni ko'rsatadiki, qayerda psixologik iqlim sog'lom bo'lsa, u yerda talaba o'z fikrini erkin ifoda qiladi, tashabbus ko'rsatadi, xatolardan cho'chimaydi va o'zining harakatlariga nisbatan mas'uliyat bilan yondashadi. Aksincha, rasmiy, sovuq va tekshiruvga asoslangan amaliyot muhitida esa talaba faqat nazoratdan o'tish maqsadida harakat qiladi, bu esa uning kasbiy o'sishini to'xtatadi. Shunday ekan, talaba o'zini qo'llab-quvvatlaydigan muhitda o'ziga nisbatan samimiy munosabatni his qilib, kasbiy ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy munosabatda bo'ladi.

Yakuniy jihat sifatida aytish mumkinki, pedagogik amaliyot — bu talaba uchun real hayotiy sinov bo'lib, uning kasbiy o'sishiga turtki bo'luvchi kuchli pedagogik-psixologik tizimlar orqali shakllanadi. Ushbu tizimlar faqat tashqi rag'bat emas, balki ichki psixologik barqarorlikni ta'minlovchi omillarga asoslanadi. Qo'llab-quvvatlovchi muhitda o'zini erkin his qilgan talaba o'zining imkoniyatlarini to'liq namoyon eta oladi va o'z ustida ishlashga tayyor bo'ladi. Bu esa nafaqat individual rivojlanish, balki kelajakdagi ta'lim sifati uchun ham muhim strategik omil hisoblanadi.

Xulosa. Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishida o'zini yetarlicha qo'llab-quvvatlash tizimining psixologik omillari muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, bu tizim talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki o'zini qadrlash va o'ziga bo'lgan ijobiy munosabatning kuchayishi pedagogning professional faoliyatiga bo'lgan yondashuvini shakllantiradi. Tashqi qo'llab-quvvatlash bilan birga ichki psixologik tayyorgarlik va mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi ham katta o'rin tutadi, bu esa talabaning o'z ustida samarali ishlashiga asos bo'ladi. Shu jihatdan, psixologik

omillar majmuasi sifatida o'zini anglash, stressni boshqarish va motivatsiyani ta'minlash tizimning ajralmas qismlaridir.

Ikkinchidan, pedagogik amaliyotning o'ziga xosligi va murakkabligi shundaki, u o'quv jarayonida shaxsning ko'p qirrali malakalarini talab qiladi. Bo'lajak o'qituvchi nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishi, balki o'rganuvchi bilan samarali aloqani yo'lga qo'yish uchun emotsional barqarorlik va muvozanatni saqlashi zarur. Qo'llab-quvvatlash tizimida emotsional intellekt, o'zini va boshqalarni tushunish kabi psixologik ko'nikmalar rivojlantirilishi lozim. Bu esa amaliyotdagi qiyinchiliklarga munosabatni yumshatib, professional o'sishga yo'l ochadi.

Uchinchidan, o'zini yetarlicha qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligi talabani o'z faoliyatini doimiy ravishda refleksiya qilishga rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Reflektiv amaliyot metodlari yordamida talaba o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, xatolarini tahlil qiladi va yangi strategiyalar ishlab chiqadi. Bu jarayon psixologik o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini faollashtiradi, natijada bo'lajak o'qituvchi o'zining kasbiy kompetentsiyasini ongli ravishda oshira boshlaydi.

To'rtinchidan, amaliyotda mentorlik tizimi ham muhim rol o'ynaydi. Mentorlar tomonidan beriladigan ijobiy feedback, konstruktiv tanqid va shaxsiy qo'llab-quvvatlash bo'lajak o'qituvchining o'zini qadrlashiga, kasbiy motivatsiyasining oshishiga yordam beradi. Bu esa nafaqat psixologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki talabaning kasbiy o'zini anglash jarayonini jadallashtiradi. Mentor-mentee munosabatlari talabada psixologik xavfsizlik muhitini yaratadi, bu esa amaliyotdagi murakkab vaziyatlarni yengib o'tishda hal qiluvchi omil bo'ladi.

Beshinchidan, o'zini qo'llab-quvvatlash tizimida ijtimoiy muhitning roli beqiyosdir. Talabalar o'rtasidagi hamkorlik, o'zaro yordam va umumiy maqsad sari intilish kasbiy o'sishga kuchli rag'bat hisoblanadi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash nafaqat stressni kamaytirishga yordam beradi, balki o'quv jarayonining qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. O'zaro tajriba almashish va muammolarni birgalikda hal qilish bo'lajak o'qituvchining o'zini yanada ko'proq baholashiga imkon yaratadi.

Nihoyat, pedagogik amaliyotda o'zini yetarlicha qo'llab-quvvatlash tizimining barqarorligi va tizimli tashkil etilishi bo'lajak o'qituvchilarning professional identitetini shakllantirishda asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Ushbu psixologik omillar yig'indisi o'qituvchining kasbiy rivojlanishini faqatgina ma'lumotlar yig'ish emas, balki ichki dunyo va tashqi amaliyotni uyg'unlashtirish jarayoni sifatida amalga oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhit ta'lim sifatining oshishiga, pedagoglarning barqaror kasbiy o'sishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Moliya, 2013. - 192 b.
2. Asqarova O'.M., Hayitboev M., Nishonov S.M. Pedagogika. - T.: Talqin, 2018. - 287 b.
3. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... док.пед.наук. - СПб.: 2015. - 43 с.
4. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixosi. -T.: O'qituvchi, 1997. – 197 b
5. K.B.Qodirov “Kasb tanlashga tayyorlashgarlikning psixologik jihatlar va professional loyihalar” Toshkent, 2001. – 36 b
6. Shakarboyeva S. Bo'lajak o'qituvchilarda o'z istida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. – 2022. – T. 2. – №. 6.